ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOMIL AVAZNING NASRIY ASARLARIDA DIALEKTIZMLARNING QO'LLANILISHI («SOZANDA» ROMANI MISOLIDA)

Avezova Gulnoza Kamilovna,
Urganch davlat pedagogika institute katta o'qituvchisi

O'zbek adabiyoti boy merosga ega bo'lib, ushbu meros namunalarini lisoniy tadqiq qilish bugungi tilshunoslikning vazifalaridan biridir. Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, «Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar»[1]. Badiiy asarning go'zalligini anglash va tushunish uning tilsimot dunyosini ochish kaliti sifatida so'zni ko'ramiz va umuman, muallifning iste'dodi, mahorati tildan qay darajada ustalik bilan foydalanishiga qarab baholanadi.

Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.[2] Shu nuqtayi nazardan Xorazm adabiy muhiti vakili, o'zbek zamonaviy adabiyotining sermahsul ijodkori sifatida Komil Avaz asarlari tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, adibning Xorazm vohasi farzandi sifatida unga xos dialektizmlardan foydalanish mahoratini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishga XX asr o'rtalaridan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlangan. Bu borada badiiy matn tadqiqi yuzasidan keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan[3]. Xususan, N.Mahmudov, M.Yoqubbekova, M.Yo'ldoshev, D.Xudayberganova, D.Andaniyozova[4] va boshqalarning badiiy asar tili hamda o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlariga doir ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, badiiy matn tadqiqi yuzasidan olib borilayotgan izlanishlarning katta qismi alohida olingan mualliflar tili yuzasidan qilinayotgan kuzatishlar hisoblanadi.[5] Bu ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar Komil Avaz asarlari tilining lingvopoetik jihatdan o'rganilishi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

---

[1] Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрь куни "Давлат тили ҳақида"ги қонун қабул қилинганлигининг 30 йиллигига бағишлаб ўтказилган анжуманда сўзлаган нутқидан.

[2] Шадиева Д. Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. –Б.4.

[3] Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.; Холманова З. «Шайбонийхон» достони лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007..; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2008. – 313 б.; Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 52 б.; Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалсафа док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б.

[4] Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б.34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б.12-17; Ёқуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 153 б; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – 91 б.; Шу муаллиф. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. – 111 б.; Shu muallif. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2009. – 126 б.; Shu muallif. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б; Shu muallif. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 256 б; Анданиёзова Д. Ономастик бирликларнинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 207 б.; Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 131 б.

[5] Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2022. – 149 б.; Тошхўжаева Ш. F. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс... автореф. – Фарғона, 2017. – 56 б.; Allaberganova D. Omon Matjon she'riyati lingvopoetikasi lingvopoetikasi: Filol. fan... d-ri (PhD) diss. – Urganch, 2024. – 141 b.

Shevalar xalqning boy va jonli qatlami hisoblanadi. Badiiy adabiyotda sheva vositalaridan foydalanish obrazning tabiiyligini, milliy koloritni kuchaytiradi. O‘zbek adabiyotida hududiy shevalarning badiiy asarlarda qo‘llanilishi yozuvchi uslubining ajralmas jihatlaridan biri sanaladi. Bu orqali yozuvchi xalq tilining tabiiyligini, ruhiyatini va milliylikni badiiy matnga olib kiradi.

Har bir xalq o‘z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o‘z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig‘ini, moddiy va ma‘naviy dunyosini, his-tuyg‘ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to‘xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo‘ladi va boyib boradi[1].

Yozuvchi qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirishi bilan birga, «badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liqdir».[2]

Komil Avaz ijodida «Sozanda» romani alohida o‘rin tutadi.[3] Ushbu asarda sozandalikdek ilohiy kasb sohibining umr yo‘li yorqin aks ettiriladi. Unda Xorazm vohasi xalqining yashash tarzi, dunyoqarashi hamda tili o‘ziga xos tarzda ifodasini topgan. Ayniqsa, asarda Xorazm shevalariga oid so‘zlarning qo‘llanilishi badiiy tilga joziba baxsh etgan, obrazlarni tabiiy va ishonchli tasvirlashga xizmat qilgan.

Asarda ishlatilgan dialektizmlarni fonetik va leksik ko‘rinishlarga ko‘ra tahlilga tortish mumkin.

Fonetik dialektizmlar dialektga xos nutq tovushlari yoxud so‘zning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi[4] bo‘lib, asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo‘llash ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.[5]

Pollo duzchi Munisning navoiy muxammasi bilan «Suvoriy»ning yakuniga jo‘ravozlikda qo‘shilar ekan, yuzida xushhol tabassum o‘ynadi. [«Sozanda», 107-b.] O‘zbek tili dialektologik tizimda shevalar adabiy tilga nisbatan ayrim fonetik o‘zgarishlarga uchragan shakllarni namoyon etadi. Jumladagi *duzchi* so‘zi ham shunday hodisalardan biridir va adabiy tildagi *tuz* so‘ziga -chi qo‘shimchasi qo‘shish natijasida hosil qilingan fonetik dialektal shakli hisoblanadi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da *tuzchi* shaxs otiga izoh berilmagan. Fonetik dialektizmlar tilning talaffuz jihatidagi o‘ziga xosliklarini ifodalaydi. *Duzchi* shaklida kuzatilayotgan t>d tovush almashinuvi Xorazm va Qoraqolpog‘iston hududlariga xos o‘zbek shevalarda uchraydigan fonetik xususiyatdir. Bu o‘zgarishning sababi ba‘zida talaffuzdagi soddalashtirish, og‘zaki nutqda qulaylik yaratish yoki shevaga xos tovush tizimining ta‘siri bilan izohlanadi. Ushbu so‘z *tuz* bilan ishlovchi yoki *tuz* mahsulotlariga mas‘ul shaxs degan ma‘noni bildiradi. Biroq uning talaffuz shakli (duzchi) matnda xalqona, og‘zaki nutqqa yaqin, milliy ruhda bo‘yoqlangan ifoda yaratishga xizmat qiladi. Fonetik dialektizmlar matnda jonli til muhitini yaratish, personajlar nutqining hududiy va ijtimoiy muhitini aniqlashtirish, hamda badiiy asarga uslubiy va etnografik boylik olib kirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular muallif tomonidan personajlar orasidagi tafovutni, til unsurlari orqali xarakter ifodasini kuchaytirishda vosita sifatida ishlatiladi.

Ayol dashnomi, isyonkorlik ovozi uyinda, qarindosh tuqqanlarni o‘rtasida ma‘qullanishi mumkin («Sozanda», 70-b) *Uyinda* so‘zi adabiy tildagi *uyida* shaklining Xorazm shevalariga xos variantidir. Bu so‘zda *n* undoshi orttirilgan bo‘lib, u grammatik emas, fonetik vazifani bajaradi. Chunki *n* tovushi orttirilishining o‘zi bilan so‘zning lug‘aviy yoki grammatik ma‘nosi o‘zgarmaydi, ammo shevaga xos talaffuz xususiyatini ifoda etadi. Ya‘ni *uyida* so‘zidagi unlilar orasiga *n* undoshining qo‘shilishi so‘zning talaffuzini yengillashtirib, og‘zaki nutqda silliq va ravon ifodalanishini ta‘minlaydi.

Asarda *juvonnamak* – juvonmarg (95-b), *talavon* – talabgor (121), *orvachilar* – aravasozlar (283) va shu kabi bir qancha fonetik dialektizmlar ham qo‘llanilgan.

Leksik dialektizmlar adabiy tilda ekvivalenti mavjud bo‘lgan shevaga xos so‘zlardir. Yozuvchi o‘z asarlarida turli xil mazmunni ifodalovchi shevaga xos so‘zlar, shuningdek, ham shevaga oid so‘z, ham uning adabiy tilda mavjud bo‘lgan ekvivalentini ham qo‘llaydi: *Qutlug‘murod ayvon yonidagi o‘choqda qiyshayibgina turgan qora tunchani suvga to‘ldirib, tagiga o‘t yoqdi.* («Sozanda», 80-b.) *Tuncha* shevag xos so‘z bo‘lib, jo‘mrakli chovgum ma’nosini ifodalaydi.

Borliq ziroat, kuzakki meva-chevaning ayni pishiqchilik davri, … hosillar talaklarga chiqarilib,… («Sozanda», 115-b.) *Talak* Xorazm shevasida «qishki hosil jamlanadigan boloxona» ma’nosini ifodalaydi. O‘tmishda har bir xonadonning qish uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat zahirasi, shuningdek, ro‘zg‘ordagi ortiqcha buyumlar talaklarda saqlangan.

[1] Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 3.
[2] Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 24.
[3] Komil Avaz. Sozanda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 328 b.
[4] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 199.
[5] Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010. – B. 39.

Romanda *solma* – ariq (47-b.) *otiz* – dala, *yo'rinja* – beda, *go'k* – ilk ko'karib chiqqan beda, *ildirma* – go'k, un, tuxum, sariyog' aralashtirib tayyorlanadigan atalaga o'xshash taom, *zag'ama-tiyr* – don yelpig'ich (xas-cho'pdan tozalagich) (50-b.), *yop* – kanal (211), kabi juda ko'plab leksik dialektizmlar qo'llangan. Shuningdek, asarda adabiy tilda mavjud, ammo Xorazm shevalarida boshqa ma'noda qo'llaniladigan so'zlar ham uchraydi: *U butun qavmina, tuxumina isnod keltirdi* («Sozanda», 95-bet). Voha xalqi tilida *tuxum* so'zi «urug'-aymoq» ma'nosida qo'llaniladi. Adabiy tildagi ma'nosida esa «*yumirta*» leksemasi faol hisoblanadi.

Xon Feruz bu dovdir dorichi harakatlaridan andak zavqlandi va xos mulozimiga: - Bir kosa issiq suv keltir, - deb buyurdi. («Sozanda», 74-b.) *Kosa* shevada piyola ma'nosida qo'llaniladi, o'zbek adabiy tilida kosa «suyuqlik va suyuq ovqat solish uchun ishlatiladigan idish»ni ifodalaydi. Shuningdek, asarda ko'lcha «ekin ekish uchun tayyorlangan kichik yer» – o'zbek adabiy tilda ko'lcha «kichkina chuqurlikda yig'ilib qolgan suv, kichkina ko'l» kabi boshqa yana o'nlab so'zlar uchraydiki, bular asarda o'g'uz lahja va shevalariga xos fonetik xususiyatlar, lug'aviy birliklar, talaffuz me'yorlari o'z ifodasini topganligidan dalolat beradi.

Komil Avaz ijodi o'zbek adabiyotida o'ziga xos til boyligi, xalqona ruhi va milliyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida mahalliy shevalarning qo'llanilishi badiiy ifoda vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shevaga oid so'zlar, ayniqsa, xarakter va muhit yaratishda, obrazlarga hayotiylik bag'ishlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday so'zlar vositasida muallif milliy qadriyatlarni, xalq hayoti va turmush tarzini yanada mazmunli aks ettirishga erishadi. Shuningdek, yozuvchi asarlarida shevaga oid so'zlarning qo'llanishini o'zbek tili va badiiy adabiyotining boyligi sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Ularning mavjudligi asarlar tilini nafaqat jonlantiradi, balki xalqning tarixiy-madaniy merosini saqlab qolish va adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish borasida ham katta hissa qo'shadi.

Rezyume. Mazkur maqolada Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo'llanilishi «Sozanda» romani misolida tahlil qilinadi. Unda asar tilidagi dialektizmlar fonetik va leksik ko'rinishlarga ajratilgan holda o'rganiladi. Dialektizmlar xarakter va muhit yaratishda, obrazlarga hayotiylik bag'ishlashda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi hamda ular vositasida muallif milliy qadriyatlarni, xalq hayoti va turmush tarzini yanada mazmunli aks ettirishga erishishi ta'kidlanadi.

Resume. This article analyzes the use of dialectisms in the prose works of Komil Avaz using the example of the novel «Sozanda». It studies dialectisms in the language of the work, separating them into phonetic and lexical forms. It is emphasized that dialectisms serve as an effective tool in creating character and atmosphere, giving vitality to images, and through them the author achieves a more meaningful reflection of national values, people's life and lifestyle.

Резюме. В данной статье анализируется использование диалектизмов в прозаических произведениях Комила Аваза на примере романа «Созанда». Изучаются диалектизмы в языке произведения, разделяя их на фонетические и лексические формы. Подчеркивается, что диалектизмы служат эффективным инструментом создания характера и атмосферы, придавая живость образам, и посредством них автор достигает более осмысленного отражения национальных ценностей, жизни и образа жизни народа.